

**KASBIY PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ  
TA'LIMNING AHAMIYATI****Abdurasulova Arjumandbonu Anvar qizi****Abdusalimova Sarvinoz O'tkir qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kasbiy pedagogik mahorat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, uzluksiz ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, shuningdek, raqamli transformatsiya davrida o'qituvchilarning yangi kompetensiyalarini shakllantirish jarayonlari yoritilgan. Milliy va xorijiy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida ularni joriy etishning samarali yo'llari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy pedagogik mahorat, uzluksiz ta'lim, raqamli transformatsiya, pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается понятие профессионального педагогического мастерства, его составляющие, профессиональное развитие педагогов в системе непрерывного образования, а также формирование новых компетенций преподавателей в условиях цифровой трансформации. На основе национального и зарубежного опыта разработаны предложения и рекомендации. Обоснованы эффективные пути их внедрения в систему образования Узбекистана.

**Ключевые слова:** профессиональное педагогическое мастерство, непрерывное образование, цифровая трансформация, педагогическая компетентность, инновационные технологии, качество образования.

**Annotation.** This article explores the concept of professional pedagogical skills, its components, the professional development of teachers within the lifelong learning system, as well as the formation of new competencies of educators in the context of digital transformation. Based on national and international experiences, proposals and recommendations are developed. Effective ways of implementing them in the education system of Uzbekistan are substantiated.

**Keywords:** professional pedagogical skills, lifelong learning, digital transformation, pedagogical competence, innovative technologies, quality of education.



Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahorati ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalarida pedagoglarning uzluksiz malaka oshirishi va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishi ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan.

XXI asrda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar uzluksiz ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu sababli, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta'lim muhiti pedagoglardan yangi ko'nikmalarni talab etmoqda. Jumladan, masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va o'quv jarayonini raqamli monitoring qilish. Bunday sharoitda pedagoglarning raqamli savodxonligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mahorati uzluksiz ta'lim jarayonida alohida e'tiborga olinmoqda[13].

Ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon nafaqat ta'lim muhitini modernizatsiya qiladi, balki o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabatini ham yangicha shaklda tashkil etishga imkon yaratadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'limda interaktiv metodlar, virtual laboratoriyalar, masofaviy o'quv kurslari va sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari joriy etilib, individual yondashuv imkoniyatlari kengaymoqda. Bloom (1984) o'z tadqiqotlarida shaxsiylashtirilgan ta'lim samaradorligini isbotlab bergan. Unga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini bir necha baravar oshiradi. Bugungi kunda bu tamoyillar raqamli ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Masalan, elektron platformalar orqali har bir o'quvchi uchun individual o'quv yo'llari tuzish, o'quv natijalarini monitoring qilish va shaxsiy tavsiyalar berish imkoniyati mavjud. Britz (1989) esa tengdoshlar yordamida o'qitish samaradorligini ko'rsatib bergan. Tengdoshlar o'rtasidagi bilim almashinuvi, birgalikda topshiriq bajarish va o'zaro baholash metodlari o'qituvchilarning faolligini oshiradi. Raqamli muhitda bu tajriba onlayn forumlar, guruhli videomuloqotlar va virtual loyiha ishlarida o'z aksini topmoqda. Natijada, talabalar nafaqat bilim oladi, balki hamkorlik qilish, muammoni birgalikda hal etish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Ushbu nazariyalar zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash metodologiyasini ishlab chiqishda



ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya nafaqat ta‘lim jarayonining sifatini oshiradi, balki pedagog va talabalar o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi. Masofaviy ta‘lim, sun‘iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlari va virtual laboratoriyalar bu borada samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda raqamli platformalar yordamida ta‘limning uzluksizligi ta‘minlanmoqda. O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ham oxirgi yillarda elektron kutubxonalar, masofaviy o‘quv kurslari va onlayn ta‘lim platformalari keng qo‘llanilmoqda[12].

Kasbiy pedagogik mahorat – bu o‘qituvchining bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatleri majmuasi bo‘lib, ta‘lim jarayonida samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Kasbiy pedagogik mahorat – bu pedagogning o‘z kasbini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy sifatler va ijodiy qobiliyatlar majmuidir. U pedagogik faoliyatning yuqori natijalarini ta‘minlaydi, o‘quv jarayonidagi muammolarni hal qilishda zamonaviy yondashuvlarni ishlatish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat — bu faqat dars berish ko‘nikmasi emas, balki tarbiyalash, talabalar bilan muloqot qilish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish kabi ko‘p qirrali faoliyatni qamrab oladi.

Olimlar (N.V. Kuzmina, A.Q. Mo‘minov, V.A. Slastyonin va boshqalar) fikriga ko‘ra, pedagogik mahorat quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Didaktik (o‘qitish) kompetensiyalar**

- fan bo‘yicha chuqur bilim;
- darsni to‘g‘ri rejalashtirish va tashkil qilish;
- zamonaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalarini qo‘llay bilish.

2. **Kommunikativ kompetensiyalar**

- talabalar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnata olish;
- nutq madaniyati, tushuntirish va ishontirish mahorati;
- konfliktlarni hal qilish va ijobiy psixologik muhit yaratish.

3. **Innovatsion kompetensiyalar**

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy yondashuv va yangicha g‘oyalarni amalga oshirish;
- raqamli savodxonlik.

4. **Tarbiyaviy kompetensiyalar**

- talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya berish;



- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil qilish.
- 5. **Shaxsiy va reflektiv kompetensiyalar**
- o'z ustida ishlash va doimiy ravishda malaka oshirish;
- o'z faoliyatini tahlil qilish, xato va kamchiliklarni anglash;
- mas'uliyat, adolat va kasbiy etikaga rioya qilish.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchilarga doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilash imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat malaka oshirish kurslari, balki ilmiy tadqiqotlar, tajriba almashish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish orqali ham amalga oshiriladi[11].

Uzluksiz ta'lim – shaxsning butun umri davomida bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borish jarayonidir. Bu tizim nafaqat talabalarga, balki pedagoglarga ham qaratilgan bo'lib, ularning kasbiy o'sishi va yangi shart-sharoitlarga moslashuvini ta'minlaydi.

O'qituvchining malaka oshirish zarurati bugungi kunda ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagoglar yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi, raqamli ta'lim vositalaridan keng foydalanishni, o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlaridagi o'zgarishlari, xalqaro tajribalar va zamonaviy standartlarni inobatga olgan holda shakllanib bormoqda. Shu sababli, o'qituvchi malakasini oshirishi zarur, aks holda u bilim va metodik jihatdan ortda qolishi mumkin[10].

#### **Malaka oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat.**

- ✓ Didaktik tayyorgarlikni rivojlantirish – yangi o'qitish metodlarini egallash.
- ✓ Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish – elektron platformalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'limdan foydalanish.
- ✓ Tarbiyaviy kompetensiyalarni boyitish – yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash.
- ✓ Ilmiy salohiyatni oshirish – ilmiy tadqiqotlar olib borish, maqolalar chop ettirish, konferensiyalarda ishtirok etish.
- ✓ Xorijiy tajribani o'rganish – xalqaro loyihalarda qatnashish, chet eldagi ilg'or yondashuvlarni o'zlashtirish.

Malaka oshirishning afzalliklari quyidagilarda ko'rish mumkin.

- Ta'lim sifatini oshirish.
- O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali shakllantirish.
- O'qituvchining kasbiy ishonchi va motivatsiyasini kuchaytirish.
- Innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish.
- Pedagogni raqamli davr talablariga moslashtirish.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, uzluksiz ta'limda raqamli texnologiyalarni



## Learning and Sustainable Innovation

joriy etish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi; pedagogik texnologiyalarning innovatsion shakllari (interaktiv metodlar, raqamli simulyatsiyalar, onlayn platformalar) talabalar bilimni chuqurlashtiradi; xalqaro tajribalarni moslashtirish orqali O'zbekiston ta'lim tizimi global raqobatbardoshlikka erishishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimi mamlakatda qonunchilik va davlat dasturlari asosida yo'lga qo'yilgan. Malaka oshirish institutlari va Respublika ta'lim markazlari orqali o'qituvchilar doimiy ravishda qayta tayyorlanmoqda[9].

Bu borada xorijiy davlatlardagi holatlar qanday amalga oshiriladi? Finlandiya ta'lim tizimida "o'qituvchi – doimiy o'rganuvchi shaxs" tamoyili amal qiladi. Malaka oshirish jarayoni amaliy faoliyat bilan uyg'un holda olib boriladi. O'qituvchilarning pedagogik erkinligi yuqori, ular o'z metodikalarini ishlab chiqishga haqli. Yaponiyada Lesson Study usuli keng qo'llaniladi – o'qituvchilar birgalikda dars tayyorlaydi, kuzatadi va tahlil qiladi. Malaka oshirish jarayoni jamoaviy muloqot va tajriba almashishga asoslangan. Har bir o'qituvchi yil davomida kamida bir necha marta o'z faoliyatini qayta baholash kurslaridan o'tadi. AQShda esa Professional development (PD) dasturlari amal qiladi. O'qituvchilar uchun onlayn kurslar, seminarlar, konferensiyalar orqali uzluksiz rivojlanish imkoniyati bor. Talabalar natijalarini tahlil qilish asosida o'qituvchi malakasi doimiy ravishda baholanib boriladi. Janubiy Koreyada ICT integratsiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Malaka oshirish jarayonining asosiy qismi – raqamli savodxonlik va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Davlat va xususiy sektor hamkorligida pedagoglar uchun doimiy onlayn platformalar yaratilgan[8].

Xalqaro tajribani o'rgangan holda va milliy ta'lim tizimini yaratish maqsadida bir qator muammolarni hal etish lozim. Malaka oshirish kurslari ko'pincha nazariy bilim berishga yo'naltirilgan, lekin real dars jarayonida qo'llash imkoniyatlari cheklangan. Ko'plab pedagoglar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda qiynaladi. Ayrim o'qituvchilar malaka oshirishni majburiyat sifatida qabul qiladi, kasbiy rivojlanishning ichki ehtiyojini his qilmaydi. Hududiy markazlarda zamonaviy texnika, internet sifati past bo'lgani uchun raqamli ta'lim imkoniyatlari to'liq yo'lga qo'yilmagan. Garchi xalqaro hamkorlik mavjud bo'lsa-da, ilg'or xorijiy metodikalarni keng joriy etish sust. O'qituvchilar ko'pincha tayyor metodik qo'llanmalarga tayanib qoladi, innovatsion yondashuvlar kam qo'llaniladi.

Kasbiy pedagogik mahoratni rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy pedagog uzluksiz o'rganishga tayyor, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanuvchi va raqamli davr talablariga mos kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Milliy va xalqaro tajribalar shuni



ko'rsatmoqdaki, pedagogik mahoratni uzluksiz rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir[7].

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiyani keng joriy etish pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishning muhim kafolatidir. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori.
3. Bloom B. Human Characteristics and School Learning. New York: McGraw-Hill, 1984.
4. Britz M. Peer Tutoring: A Review of the Literature. Education, 1989.
5. Koen P. The Effectiveness of Tutoring in Education. Academic Press, 1996.
6. “Rossiyada zamonaviy universitetning tyutorlik modeli”. Tomsk davlat universiteti nashriyoti, 2019.
7. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. Academic research in educational sciences, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
8. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
9. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.
10. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
11. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.
12. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
13. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.